

TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

Sultonov Shuxrat Adxamovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Allayorov Erali Elbek o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiiy resurslarning inson hayotidagi o'рни, ularning tasnifi, resurslardan noto'g'ri foydalanish oqibatlari hamda ularni muhofaza qilishning ilmiy va amaliy yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, resurslardan oqilona foydalanishning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: tabiiy resurslar, ekologiya, muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, resurs tejash, atrof-muhit, ekologik muammo.

EFFICIENT UTILIZATION OF NATURAL RESOURCES AND ENVIRONMENTAL PROTECTION

Sultanov Shukhrat Adkhamovich

Associate Professor of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Shakhrisabz city

Allayorov Erali Elbek ugli

student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Shakhrisabz city

Abstract. This article analyzes the role of natural resources in human life, their classification, the consequences of misuse of resources, and scientific and practical ways to protect them. The importance of the rational use of resources in ensuring environmental sustainability is also highlighted.

Keywords: natural resources, ecology, protection, sustainable development, resource conservation, environment, ecological problem.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ И ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Султанов Шухрат Адхамович

Доцент Шахрисабзского государственного педагогического института

Узбекистан, город Шахрисабз

Аллаёрова Эрали Элбек угли

студент Шахрисабзского государственного педагогического института

Узбекистан, город Шахрисабз

Аннотация. В данной статье анализируется роль природных ресурсов в жизни человека, их классификация, последствия нецелевого использования ресурсов и научно-практические пути их защиты. Также подчеркивается важность рационального использования ресурсов в обеспечении экологической устойчивости.

Ключевые слова. природные ресурсы, экология, охрана, устойчивое развитие, ресурсосбережение, окружающая среда, экологическая проблема.

Kirish. Tabiiy resurslar - bu insoniyat hayoti va iqtisodiy faoliyati uchun zarur bo'lgan, tabiatda tabiiy yo'l bilan hosil bo'lgan boyliklardir. Ular nafaqat moddiy boylik, balki ekologik muvozanatni saqlashning ham muhim omilidir. Insoniyat tarixi davomida tabiatdan foydalanish jarayoni har doim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, neolit davrida inson asosan o'simlik va hayvonlardan oziq-ovqat olish, yog'och va toshdan qurol-yarog' yasash orqali hayotini ta'minlagan bo'lsa, sanoat inqilobi davrida ko'mir, neft va gaz kabi energiya resurslaridan keng ko'lamda foydalanish boshlangani kuzatilgan. Hozirgi zamonda esa tabiiy resurslarga bo'lgan talab keskin oshgan. Aholi sonining tez o'sishi, sanoat va transport tizimlarining rivojlanishi, shuningdek, texnologik yutuqlar resurslarga bosimni kuchaytirdi. Bu esa nafaqat resurslarning tez kamayishiga, balki ekologik muammolarning — havo ifloslanishi, suv tanqisligi, tuproq eroziyasi, o'rmonlarning qisqarishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shuning uchun tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bugungi kunning

eng dolzarb global masalalaridan biridir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi aynan shu tamoyilga asoslanadi: resurslardan shunday foydalanish kerakki, nafaqat hozirgi, balki kelajak avlod ehtiyojlari ham ta'minlanishi lozim.

Asosiy qism. Inson tabiiy resurslardan foydalanishda ko'plab iqtisodiy foyda olishni ko'zda tutadi. Lekin, u ko'pincha, tabiiy sharoitning o'zgarishi kishilarning jismoniy, psixik holatiga ta'sir etishini hisobga olmaydi. Inson tabiatning har bir bo'lagi, har bir komponenti (suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvon va minerallar) bir-biri bilan shu qadar chambarchas bog'langanki, uning biron qismiga noto'g'ri ta'sir etish oqibatida ma'lum vaqt o'tishi bilan tabiatning boshqa komponentlarining holatini o'zgartirib yuborishini bilmaydi. Jamiyat hayotini yashash vositasi bo'lgan turli tabiiy resurslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. «Resurs» so'zi - fransuz tilidan olingan bo'lib, «yashash vositasi» degan ma'noni bildiradi. Tabiiy resurs deb - tabiatda mavjud bo'lgan, insonlar tomonidan yaratilmaydigan, insonning hayoti, xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha boyligi uning iqtisodini rivojlantirishning muhim sharoitlaridan biridir, aksincha zahiralarning kamligi yoki umuman yo'qligi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Lekin bu qonuniyatni har doim ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Dunyoda shunday mamlakatlar borki, ular joylashgan hududda mineral resurslar umuman yo'q yoki bo'lsa ham juda oz miqdorda, shunga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar. Bu mamlakatlarda ishchilar, muhandislar va texnik xodimlarning yuqori malakaga egaligi, fan-texnika taraqqiyoti uchun yaratilgan sharoitlar sanoatni rivojlatirishda eng muhim omillardan biri deb hisoblanadi.

Fan va texnika taraqqiyoti natijasida inson faqat yyer sirtinigina o'zgartirib qolmasdan, uning chuqur qatlamlaridagi va okean tublari, baland tog' bag'irlarini o'rganib, ulardagi resurslardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqda. Inson yerning chuqurroq qatlamlaridan foydali qazilma boyliklarni olish uchun bir qancha muhim muammolarni hal qilishi zarur. Chunonchi:

- takomillashgan mashinalarga ega bo'lishi;

- bunday mashinalar yaratish uchun ko'p miqdorda yuqori sifatli va mustahkam toza metallga ega bo'lishi;

- bu mashinalar yordamida tabiatga ta'sir etish chegarasini biladigan, uni boshqara oladigan yuqori malakali, madaniyatli mutaxassislar bo'lishi va boshqalar.

Mineral xom ashyo ma'danli (undan metallar ajratib olinadi) va noma'dan (metalmas komponentlar ajratib olinsa yoki qurilish materiallari shaklida ishlatilsa) bo'lishi mumkin. Agarda mineral resurslar yoqilg'i shaklida ishlatilsa (ko'mir, neft gaz, torf) ular yoqilg'i-energetik resurslari turiga kiradi.

Energetik resurslar - quyosh, koinot, atom-energetik, termo va boshqa energiya manbalarini majmuasidir. Ishlab chiqarishda ishlatilishi bo'yicha tabiiy resurslar quyidagilarga bo'linadi: - yer fondi - dunyo va mamlakat miqyosidagi hamma yerlar, vazifalari bo'yicha quyidagi toifalarga bo'linadi: qishloq xo'jaligidagi yerlar, yashash punktlari, noqishloq xo'jaligi yerlari (sanoat, transport, qazib olish sanoatida va h.k).

Hozirgi kunda tabiiy resurslardan foydalanishning yangi usullari keng qo'llanib kelinmoqda:

- tabiiy resurslardan qazib olish jarayonida zamonaviy, tejamkor va atrof muhitga imkoniyati bor darajada bezarar texnologiyalarning qo'llanishi. Masalan, ko'mirni, boshqa qazilma boyliklarni qazib olishda ochiq usulga qaraganda ko'proq yopiq usullardan foydalanish;

- qazib olingan qayta tiklanmaydigan resurslardan kompleks ravishda foydalanib, chiqindiga chiqarmasdan ishlatilish.

Qazib olingan rudadan nafaqat oltin yoki qimmatbaho metallar ajratib olib rudani oqova suvlarga yuvib yu, borish balki yangi texnologiyalarni joriy etib rudadan to'liq foydalanib tarkibidagi boshqa metallarni ham ajratib olish. Makalaturadan qog'oz ishlab chiqarish jarayonida daraxtlardan olish jarayoniga nisbatan atmosfera havosining ifloslanishi.

Bundan tashqari, makalaturadan 1 tonna qog'ozni ishlab chiqarilishida 4.7-5,6 m³ hajmdagi daraxtlar va 165-200 m³ suv saqlab qolinadi yoki tejaladi, chiqindilarni yoqilg'i sifatida ishlatish va h.k.

Tabiiy resurslardan foydalanishda quyidagilarga qat'iy amal qilish lozim:

- foydalanish lozim bo'lgan mavjud tabiiy resurslarning miqdori va sifatini aniqlash;

- ishlab chiqarishning xom ashyo bazasini reja asosida kengaytirish;

- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va tiklashda fan va texnika yutuqlariga tayangan holda ish tutish;

- tabiiy resurslardan foydalanishda texnikani takomillashtirishga va aholining dunyoqarashini shakllantirishga alohida e'tibor berish. avtomatlashtirish.

Atrof-muhitni asrash nuqtai nazaridan resurslarning uchinchi, ya'ni - qayta tiklanish klassifikatsiyasi muhimdir. Tabiiy resurslar tasnifi Tabiiy resurslar xarakteristikasini bilish ulardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega.

O'simlik va hayvonlarni faqatgina ma'lum populyatsiyasi saqlanib qolgan holdagina qayta tiklash mumkin. Yer osti qazilmalarining tiklanmasligini hisobga olib, ulardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega. Ularni qayta tiklab bo'lmaydi. Chunki yer osti boyliklari million yillarda, ya'ni geologik davrlardagina, juda sekin - astalik bilan tiklanadi. Shuning uchun ularni qazib olishda, tashish va ishlatishda isrofgarchilikga, atrof - muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Dunyo okeani resurslari, atmosfera havosi, Antarktida tabiiy resurslari, kosmik fazo, ko'chib yuruvchi hayvonlar umumjahon resurslari hisoblandi.

Tabiiy resurslarning tasnifi (sinflarga bo'linishi). Tabiiy resurslar 2 turga bo'linadi:

1. Tugaydigan tabiiy resurslar.

2. Tugamaydigan tabiiy resurslar

Tugaydigan tabiiy resurslar o'z navbatida 2 guruhga bo'linadi:

1. Tiklanadigan resurslar.

2. Tiklanmaydigan resurslar.

Tiklanmaydigan tabiiy resurslarga yyer osti boyliklari va foydali qazilmalar, ya'ni ma'danli va ma'dansiz qazilmalar kiradi. Ular foydalanayotgan darajadan million-million marta syekin tiklanadigan tabiiy ryesurslar

hisoblanadilar. Bunday resurslarni tiklab bo'lmaz ekan, mineral resurslardan samarali foydalanish, ularni tejab-tergab ishlatish va ularni qazib olinayotganda yyerlarga zarar yetkazilishiga yo'l qo'yimaslik zarur.

Tiklanadigan tabiiy resurslarga tirik mavjudotlar, o'simlik va hayvonlar, daraxtlar, shuningdek, tuproq kiradi. Tuproq yo'q bo'lib ketmaydi, balki asosiy xossasini – unumdorligini yo'qotishi mumkin. Bunday resurslardan foydalanayotganda shuni esda tutish kerakki, muayyan tabiiy sharoitning buzilishi ularning qayta tiklanishiga xalaqit berishi mumkin.

Tugamaydigan tabiiy resurslar — bu tabiat tomonidan doimiy ravishda qayta tiklanib turadigan yoki inson foydalanishi natijasida kamayib ketmaydigan resurslardir. Bunday resurslar insoniyat uchun uzoq muddatli barqaror rivojlanishning asosini tashkil etadi. Ular atrof-muhitga kam zarar yetkazadi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini ham ta'minlash imkonini beradi. Tugamaydigan resurslarning asosiy xususiyati shundaki, ular inson tomonidan ishlatilgan sari tugab qolmaydi. Masalan, Quyosh har kuni energiya beradi, shamol doim harakatda bo'ladi, daryolar oqimi davom etadi. Shu sababli ular barqaror resurslar deb ham ataladi. Tugamaydigan tabiiy resurslar Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, suv energiyasi, To'liq va dengiz oqimlari energiyasi.

Tugamaydigan tabiiy resurslar — kelajak energetikasining poydevoridir. Ular insoniyatni energiya bilan ta'minlash bilan birga tabiatni asrashga ham xizmat qiladi. Shu sababli bugungi kunda dunyo mamlakatlari aynan qayta tiklanuvchi va tugamaydigan energiya manbalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu yo'l orqali ekologik xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va kelajak avlodlar farovonligi ta'minlanadi.

Xulosa. Tabiiy resurslar insoniyat hayoti va taraqqiyotining ajralmas qismidir. Ular iqtisodiy rivojlanishning moddiy asosini tashkil etadi, shuningdek, ekologik muvozanatni saqlash va biosferaning barqarorligida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda resurslarga bo'lgan talab ortib borayotgani, ularni noto'g'ri va haddan tashqari iste'mol qilinishi esa ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni kuchaytirmoqda. Shu jumladan, o'rmonlarning qisqarishi, tuproq eroziyasi, suv

havzalarining kamayishi, atmosferaning ifloslanishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi oqibatlar global xavf darajasiga yetmoqda. Shuni hisobga olgan holda, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy zaruratga aylanmoqda. Resurslarni tejash, qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, o‘rmonlarni qayta tiklash va ekologik qonunchilikni kuchaytirish kabi chora-tadbirlar barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda asosiy yo‘llar sifatida e’tiborga olinadi. Kelajak avlodning hayot sifati va tabiiy muhitning barqarorligi bugungi kun qarorlariga bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun har bir davlat va har bir inson tabiiy resurslarga mas’uliyat bilan yondashishi, ularni tejab-tergab ishlatishi va muhofaza qilishi lozim. Faqat shu yo‘l bilan insoniyat ekologik inqirozdan qochib, kelajakda barqaror, sog‘lom va boy tabiat muhitida yashash imkoniga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Ўқитувчи. 1996.
2. Ҳасанов И., Ғуломов П., Қаямов А. Университет. Ўзбекистон табиий географияси. 2010.
3. Зокиров Ш.С., Тошов Х. Ландшафтшунослик. Тошкент. 2016.
4. Хасанов П.А. Возникновение теории о высотных областях и ее своеобразное развитие. Экономика и социум. 2021.
5. Файзуллаев.М.А. [Жанубий Ўзбекистонда аграр-индустриал циклининг шаклланиши ва ривожланиши](#). Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2015, 46, 103-105.
6. Nazarov M.G. Qashqadaryo viloyatining antropogen landshaftlarini tasniflashning ayrim masalalari // Ilm-fan va innovatsiya. Ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. -Qarshi, 2013. –B.71-74.
7. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyati tog‘li hududlarida foydali qazilmalarni geografik tarqalishi. Экономика и социум №3(130)-1 2025, www.iupr.ru. ЭС-2025-030076, ISSN 2225-1545.
8. Sultonov Sh.A., Navotova D.I. O‘zbekistonda rangli metallarning

geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. - №2(117)-1 2024, 682-690 betlar, 2024-yil. <http://www.iupr.ru> , ISSN 2225-1545

9. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyatida mineral resurslardan foydalanishning geografik jihatlari va tabiatga salbiy ta'siri masalalari. FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal. -№4. 2025-yil. 39-41-betlar.

10. [http: www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)

11. [http: www.geografiya.uz](http://www.geografiya.uz)